



## MAKTABGACHA TA`LIM KLASTERI RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH MEXANIZMI SIFATIDA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Maktabgacha ta`lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Ergasheva Nodira Ulug`bek qiz

ergashevan186@gmail.com

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta`lim klaster yondashuvini tadbiq etish uchun, ta`lim kontekstida klaster sharoitini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Klaster sharoiti esa, barcha ta`lim turlarining umumiyligi maqsadlari va xususiy manfaatlarini inobatga oladigan hamkorlikdagi o`quv reja va o`quv dasturlari orqali amalga oshirish to`g`risida so`z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Klaster, uzluksiz ta`lim, infrastruktura, texnologiya, ta`lim, strategiya, subyekt.

**Абстрактный:** Для реализации кластерного подхода в дошкольном образовании важной задачей является создание кластерной среды в сфере образования. Отмечается, что условия кластера будут реализовываться через совместную учебную программу и образовательные программы, учитывающие общие цели и частные интересы всех видов образования.

**Ключевые слова:** Кластер, непрерывное образование, инфраструктура, технологии, образование, стратегия, предмет.

**Abstract:** In order to implement the cluster approach to pre-school education, it is an important task to create a cluster environment in the context of education. It is said that the cluster conditions will be implemented through a cooperative curriculum and educational programs that take into account the common goals and private interests of all types of education.



**Keywords:** Cluster, continuous education, infrastructure, technology, education, strategy, subject.

Maktabgacha ta`lim klasteri tarmoq tizimni innovatsion rivojlanishiga olib keladi. Ma`lumki, har qanday tarmoqning innovatsion rivojlanishi tegishli ilmiy asossiz rivojlanmaydi.

Ta`kilash joizki, uzluksiz kasbiy ta`lim tiziminigg tarkibiy qismi sifatida maktabgacha ta`lim klasteri turli darajadagi ta`lim muassasalri orasidagi aloqani mustahkamlash, talabalarning amaliy tayorgarlik sifatini yaxshilash, o`quv jarayonini samaradorligini oshirish va maktabgacha ta`lim tizimida izchillik va integratsion jarayonlar tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta`lim klasteri – bu asosan bo`g`in ichidagi gorizontal aloqalarga asoslangan ilm fan-texnologiya-biznes innovatsion zanjiridagi ta`lim, o`zaro ta`lim va mustaqil ta`lim vositalari tizimidir. Shu bilan birga ta`lim klasteri – bu —oddiy insonlни tayyorlash bo`yicha vertikal munosabatlar bilan bog`langan va ko`rsatilgan mahsulotni ishlab chiqarish bo`yicha texnologiyalar bilan almashish bo`yicha gorizontal munosabatlari bilan bog`langan ijtimoiy institutlar yig`indisidir. Shunday qilib, maktabgacha ta`lim klasteri – bu tarmoqqa tegishlilik belgisi va tarmoq korxonlarai bilan hamkorlik munosabatlari bilan birlashgan ta`lim muassasalarining o`zaro bog`liq majmuasidir.

Inson faoliyatining o`ziga xos turi sifatidagi maktabgacha ta`limning uzluksizligi, ushbu uzluksizlikni avvalgi umumlashgan tajriba va uni aniq faoliyat maxsulini olish uchun qo`llashni bilish bilan bog`liq bo`lgan nazariy va amaliy tomonlari uzluksiz maktabgacha ta`lim tizmining integrativ ta`lim tuzilmasi bo`lgan ta`lim klasterida amalga oshadi.

Maktabgacha ta`lim klasterining samarali rivojlanishi uning muvaffaqiyatiga ta`sir ko`rsatuvchi quyidagi shart-sharoitlar va omillarga bog`liq:

talabga javob beradigan texnologik va ilmiy infrastrukturaning mavjudligi;



qatnashchilarning o`zaro hamkorlikka ruhiy jihatdan tayyorligi;

klaster subyektlari o`rtasida axborot almashishni ta`minlovchi kuchli axborot texnologiyalari.

Bularga qo`shimcha ravishda quyidagilarni ham keltirib o`tish lozim:

- ta`lim klasterini rivojlantirishning turli darajalardagi mustahkam strategiyasining mavjud bo`lishi;
- tajribadan o`tkazishga yo`naltirilgan dastur va loyihalarni boshqarish hamda amalga oshirishning samarali mexanizmlarini qo`llash imkoniyati;
- ta`limni klasterlashtirish bilan bog`liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- ularda samaradorlikka erishish uchun mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashtirish;
- ta`lim klasteri subyektlarida targ`ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vositasida ularning mazkur innovatsion jarayonni to`la anglab yetishlariga erishish, hamkorlik ko`p tomonlama manfaat keltirishini anglashlariga imkon yaratish;
- klasterni rivojlantirishning puxta o`ylangan strategiyasini, loyihani muvaffaqiyatli boshqarishning usul va yo`llarini ishlab chiqish;

qatnashchilar o`rtasida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratish va hokazo.

Demak, maktabgacha ta`limni klasterlashtirish bilan bog`liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ularda samaradorlikka erishish uchun mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashti-rish, subyektlarda targ`ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vositasida ularning mazkur innovatsion jarayonni to`la anglab yetishlariga erishish, hamkorlik ko`p tomonlama manfaat keltirishini anglashlariga imkon yaratish, klasterni rivojlantirishning puxta o`ylangan strategiyasini, loyihani muvaffaqiyatli boshqarishning usul va yo`llarini ishlab chiqish, qatnashchilar o`rtasida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratish klasterning muvaffaqiyat garovi, degan



xulosaga kelish mumkin. Lekin bu juda keng ko`lamdagi tashkiliy jarayon bo`lib, ko`p vaqt va aniq maqsadga yo`naltirilgan faoliyatni talab qiladi.

Ta`limni klasterlashtirish bilan shug`ullangan N.N.Davidova, B.M.Igoshev [4; 75-b.], G.E.Zaxidovalarning ta`kidlashlaricha, klasterni rivojlantirishning aniq samaralari 5-7 yilda ko`zga tashlana boshlaydi.

Ta`limga nisbatan klaster yondashuvi boshqaruvi organlariga tizim ichida samarali o`zaro ta`sir o`tkazish uchun muayyan vositalar bilan ta`minlash, muammolarni yaxshiroq tushunish, turli darajalardagi rivojlanishning ilmiy asoslarini rejorashtirish imkonini beradi. Bularning barchasi ta`lim klasterining katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega jarayon ekanligi haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi. Ta`lim klasteri tizimning raqobatbardoshligini ta`minlovchi muhit va shart-sharoitni yaratgan holda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik ahamiyati orta boradi.

Maktabgacha ta`limni klaster yondashuvi asosida ta`lim jarayoni ishtirokchilarining kompetensiyalarini takomillashtirish bir mintaqaviy hududda joylashgan oliy va umumta`lim muassasalari hamkorligidagi klaster tuzilmasi asosida samarali tus oladi. Uning faoliyati subyektlarning o`zaro hamkorlikdagi loyihalashtirilgan, huquqiy asoslar bilan ta`minlangan variativ o`quv rejalar, dastur va loyihalarni ishlab chiqish hamda tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi. Uzluksiz ta`lim turlari o`zaro hamkorlik asosidagi klaster tuzilmasini tashkil qilishda iste`molchilar talablariga javob beradigan ijtimoiy buyurtma yetkazib beruvchilarning alohida va integratsion faoliyat mexanizmlari va bundan kutiladigan natijalarni belgilab olish muhim sanaladi.

Maktabgacha ta`limni klaster yondashuvini tatbiq etish uchun, ta`lim kontekstida klaster sharoitini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Klaster sharoiti esa, barcha ta`lim turlarining umumiyligi maqsadlari va xususiy manfaatlarini inobatga oladigan hamkorlikdagi o`quv reja va o`quv dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ta`lim klasterida iste`molchining asosiy talabi ta`lim oluvchilarning o`quv dasturlardagi nazariy bilimlar bilan birga amaliy faoliyatga ham tayyorligi, ta`limning keyingi turi yoki ishlab chiqarishda ishni darhol boshlash va ta`lim muassasasida olingan bilimlarni muayyan vazifalarda qo`llay olish



qobiliyatida namoyon bo`ladi. Mazkur yo`nalish bo`yicha tadqiqot olib borgan S.M.Cherdansev bunday ko`nikmalar amaliyot davomida shakllantirilishi lozim, bu esa, bir tomondan, professional bilimlarni boyitishga imkon beruvchi ta`lim jarayonining ajralmas qismi bo`lsa, boshqa tomondan, kelajakda bo`lajak mutaxassisning ish faoliyatidagi talablarga javob berishini baholash uchun —sinov muddati ham bo`lishi mumkin, degan xulosa beradi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Sh.Mirziyoyev olimlar va yoshlar bilan fikr almashdi. 31.01.2020.  
<https://uza.uz/uz/posts>
2. N.Sh.Abdullayeva Maktabgacha ta`limga klasterli yondashuv tatbiq etish orqali ta`lim sifati samaradorligini oshirish. Xalq ta`limi ilmiy-metodik jurnali Toshkent, 2021. № 6 – B.126-130
3. N.Sh.Abdullayeva Management of Preschool Education System in Cluster Approach  
[http://www.revistageintec.net/index.php/revista/article/view/2040\\_B1671-1680](http://www.revistageintec.net/index.php/revista/article/view/2040_B1671-1680)
4. Qilichova M.(2021) Maktabgacha ta`limda elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish muammolari.Maktabgacha ta`lim jurnali .4(Preschool education journal)
5. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., Istiqlol, 2006